

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT METODLARI

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

UROZIMBETOVA SARVINOZ RUSTAM QIZI

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishin 1- bosqich talabasi

BAXRIDDINOVA MADINA SADRIDDIN QIZI

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi

RAXMATULLAYEVA SURAYYO MANSUR QIZI

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

HABIBULLAYEVA DILNOZA DANABOY QIZI

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 - bosqich talabasi

TURDIYEVA DILOROM TOSHPO'LATOVNA

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada psixologiyaning eng ko'p qo'llaniladigan metodlari va hozirgi kunda psixologiyaning inson hayotida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

Ka'lit so'zlar: metod, psixoprofilaktika, psixodeagnostika, psixokorreksiya, psixoterapiya, logityud.

KIRISH

Hozirgi kunda psixologiya faniga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoyev “ Alovida psixologik xizmat ko'rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi qarori e'lon qilingan. Respublikamizda psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takom illashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilanishi mumkin.

Bular quyidagilardan iborat:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan yangilanish, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda psixologik xizmatlarning samarali shakillari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- yoshlar tarbiyasining ta'sirchan mexonizmlarini ishlab chiqish, shaxsning ma'naviy kamol topishida psixologik qo'llab – quvvatlash, yoshlarning mustaqil ongli kasb tanlashi va o'zining shaxsiy, kasbiy rejalarini shakillantirishga sharoitlarni yaratishga psixologik ko'maklashish
- iqtidorli yoshlar salohiyatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish shular jumlasidan.

Bu loyihaga binoan psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat, psixoterapiya kabi sohalarda kasbiy bilim, malaka va

kompetensiyalarga ega yuqori malakali kadrlarni xalqaro ta'lif standartlariga muvofiq tayyorlash maqsadida O'zbekiston Milliy Universitetining “ Psixologiya” va “ Sotsiyologiya “ kafedralari negizida O'zbekiston davlat psixologiya universitetini tashkil etish belgilangan.

Hozirgi kunda ko'pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma'lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari kerak. Bu zamon talabi hisoblanadi.

Hra bir fan aniq ma'lumotlarga asoslanadi. Har qanday fan aniq ma'lumotlaga asoslanadi. Har qanday fanga o'xshsh psixologiya ham o'zining tadqiqot metodlariga ega.

Psixologik tadqiqotda qo'llaniladigan metodlarning barchasi to'rt guruhga ajratish mumkin. Bular:

- birinchi guruh: tashkiliy metodlar
- ikkinchi guruh: tajriba metodlari
- uchinchi guruh: ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish metodlari
- to'rtinchi guruh: izohlash metodlari.

Birinchi guruhga qiyosiy, logityud va majmua metodlari kiradi.

Psixologik tadqiqotning asosiy metodlarini birmuncha to'liqroq holda ko'rib chiqamiz. Qiyosiy metod – turli guruhlarga mansub odamlarning Yoshi, ma'lumoti, faoliyati va muloqotiga ko'ra taqqoslashdan iborat. Logityud metodi – tanlangan sinaluvchilarni uzoq vaqt davomida qayta - qayta tekshirishdan iborat. Qiyosiy va logityud metodlari o'z afzalliklariga ega. Majmuyi metod – tadqiqotda turli fan vakillarining ishtiroki turli hodisalar, masalan, shaxsning fiziologik, psixologik va ijtimoiy taraqqiyoti o'rtaqidagi aloqalar va bog'liqliklarni o'rgatish imkonini beruvchi o'ranish usuli hisoblanadi. Bu metodlar psixologiyaning asosiy metodlaridan biridir.

Psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tadqiqot metodlari emperik metodlari guruhidir. Emperik degani amaliy degan ma'noni anglatadi. Empirik metodlar guruhiga kuzatish, suhbat, test, eksperement, biogeografik, sotsiomeriya usullari kiradi. Kuzatish metodi tashqi ob'ektiv va sub'ektiv o'zgarishga imkon beradi. Masalan, inson psixologiyasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- kuzatish maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- kuzatish ob'ekti tanlanadi;
- sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi;
- tadqiqot vaqtি rejalashtiriladi;
- kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;
- qaysi faoliyat kuzatilishi belgilab olinadi;
- kuzatish shakli belgilanadi;
- kuzatishni qayd etib borish vositalari.

Inson hayoti davomida psixik faoliyatlar har doim o'z ifodasini topadi va ko'rsatadi. Inson psixologiyasi, o'z taraqqiyoti va iqtidorlarini tashkil etishni bilish, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorgarlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni to'g'ri idrok qilish, qobiliyatini rivojlantirish lozim. Shu bilan birga odamlarning psixologik faktlarga ko'proq qiziqib, ularni ko'rib, o'rganib borgan sari unda o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Agar odamlar psixologiyasini o'rgansa undagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixologiyasini biladigan bo'lib qoladi. Bu olgan bilimi ya'ni psixologiyani o'rgangani boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishgan imkon beradi. Shu bilan birga psixologiya kishilar amaliy faoliyatining har xil turlaridav – ta'lim – tarbiya, ishlab chiqarish, mahnat, tibbiyat, sud – huquqshunoslik, harbiy – mudofaa, san'at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Psixologiya, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh o'smirlar uchun muhim ahamiyatga ega. CHunki uning jamiyatda o'z o'rnini topishi, yaxshi va yomon nianglashida qiyin davr hisoblanadi. Masalan, o'spirinning xulq – atvorigagi o'zgarishlarda, mo'ziga bo'lgan munosabatlarida va o'ziga to'g'ri baho berishda maktab psixologi yordam berishi mumkun. Agar tajribali psixolog bo'lsa sizga qanday qilib qiyinchiliklarni yengib o'tishi, muammolarni to'g'ri hal qilishni va boshqalar bilan muloqotga kirisha olishda maslahatlar berishga yordamlashadi. Bunday vaziyatlarda psixologga turli xil psixologik usullar, metodlar va test metodlari yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda psixologiya fani inson o'zini anglashida, jamiyatda oilada va hayotga bo'lgan munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. Umr bo'yi inson turli xil bosqichlarni bosib o'tadi. SHaxsning individual psixologik xususiyatlarini umumiy qonuniyatları namoyon bo'lish mexonizmlarini aynan psixologiya fani o'rganadi. Ya'ni odamlarning tug'ilgandan to' umrining oxirigacha bo'lgan yosh davrlarni psixologiya sohasi o'rganadi. Biz odamlarning bir – biri bilan jamiyatdagi muloqoti ish faoliyatları natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, hissiy kechinmalar va xulq – atvorni umumiyligi psixologiyada o'rganamiz. SHuning uchun ham biz psixologiya sohasini rivojlantirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy psixologiya A.V.Petrovskiy tahririda. Toshkent. 1992 – yil. 53 – 62 – betlar.
2. Kazakov V. G. Kondrateva L.L. Psixologiya. M. 1989 – yil.
3. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007 – yil.
4. G'oziyev.E.O'. Oliy maktab psixologiyasi "O'qituvchi" T. 1997 – yil
5. Foziyev E. Umumiy psixologiya 2 – kitob. Toshkent. 2004 – yil.